

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KASBLAR
OLAMI BILAN TANISHTIRISHNING AHAMIYATI**

Ismoilova Shaxnoza Ma'ruf qizi

O'zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti

Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi

1-bosqich magistranti

shaxnozaismoilova15@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasblar olami bilan tanishtirishning ahamiyati o'rganilgan. Kasbga yo'naltirish bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maqolada interfaol metodlarning qo'llanilishi va o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olishning o'rni ko'rib chiqiladi.

Аннотация: В рассматривается важность ознакомления учеников начальных классов с миром профессий. Профориентация может повлиять на их будущую профессиональную деятельность. В исследовании рассматривается применение интерактивных методов и учет интересов учащихся.

Abstract: This article explores the importance of introducing elementary school students to the world of professions. Career orientation can influence their future professional success. The study examines the role of interactive methods and the importance of considering students' interests.

Kalit so'zlar: kasbiy yo'naltirish, interfaol metodlar, boshlang'ich sinf, texnologiya, gamifikatsiya, rolli o'yinlar, 4K, collaboration

Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri yosh avlodni kelajak kasblariga tayyorlashdir. Boshlang'ich sinf bosqichida kasblar haqida tasavvur hosil qilish, bolalarning o'z iste'dod va qiziqishlarini aniqlashga yordam beradi. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasblar olami bilan tanishtirishning ahamiyati, zamonaviy pedagogik metodlar va ta'lim jarayonida kasbiy yo'naltirishning roli yoritiladi. To'g'ri kasb tanlash har bir o'quvchi uchun muammoli savol bo'lib kelmoqda. Zamonaviy gadjetlar yoshlarni boshqarayotgan bir vaqtda ularni kasblar olami bilan tanishtirish, kasbga yo'naltirish muhim o'rindagi najot bo'la oladi. Mana shu muammoning yechimi ilk maktab yoshidan o'quvchilarga ota-onalar va o'qituvchilar tomonidan kasb nimaligini, kelajakda qaysi kasb egasi bo'lishligi hayoti davomida qanchalik ahamiyat kasb etishi haqida to'liqroq ma'lumot berish kerak.

KIRISH

Boshlang'ich ta'limda kasbiy yo'naltirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Pedagog olimlar A. V. Xudoyqulov va N. G. To'laganova ta'kidlaganidek,

bolalarda kasbga qiziqishni shakllantirish, ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xorijiy tadqiqotchilar, jumladan, J. Holland va D. Super, bolalarning kasbiy moyilligini erta aniqlash muhimligini qayd etganlar.

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasblarga qiziqish uyg'otish usullari sifatida o'yin texnologiyalarini ilk o'rinlarda aytib o'ta olaman. Sababi bugungi kunda ta'lim jarayoniga kirib kelayotgan gamifikatsiya (o'yin elementlarini dars jarayoniga tadbiiq etish) tushunchasi bizning tadqiqotimizda o'z aksini topgan.

O'yin texnologiyalari: Rolli o'yinlar orqali turli kasblarni tanishtirish. Ya'ni pantomima o'yini misolida oladigan bo'lsak boshlang'ich sinf o'quvchilarini hech shubhasiz darsga qiziqitira olamiz. shu bilan birgalikda kasblar haqida haqida ilk tushunchalarni berishimizga imkon yaratiladi.

Ijodiy topshiriqlar: Rasm chizish, hikoya yozish, maketlar yasash orqali kasblar haqidagi bilimlarni boyitish. Bola qachon yangi o'rgangan narsasini xotirasi mustahkam muhrlaydi? Qachonki uni o'zi amaliyotda bajarib ko'rsa, ushlab ko'rsa, soddaroq tilda aytadigan bo'lsak haqiqiy holatini ko'zi bilan ko'rsagina.

Mehmonlar bilan uchrashuv: Turli kasb egalari bilan uchrashuvlarni tashkil qilish. Bu jarayon ham yuqoridagi fikrimni isboti. Misol uchun ,o'quvchi tadbirkor bo'lishni tanladi. U tadbirkor bilan uchrashsa, suhbat qursa ,o'sha sohaning yutuq va kamchiliklarini uning og'zidan eshitsu, o'quvhida jua katta emotsional holat yuzaga keladi. Sababi u o'sha tadbirkor o'rnida o'zini ko'ra oladi (bir necha daqiqa bo'lsa ham), u katta bo'lmasdan turib shu kasbda ishlayotganini tasavvur qilish imkonig ega bo'ladi. Bu esa har bir o'quvchiga to'g'ri kasb tanlashida yordam beruvchi bittagina usul hisoblanadi.

2. Interfaol metodlarning ahamiyati

Jamoaviy ish: O'quvchilarni kichik guruhlariga ajratib, kasblar bo'yicha taqdimotlar tayyorlash. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonidagi 4K modeli hech kimga sir emas. Biz yoritmoqchi bo'lgan keyingi usul mana shu modelning collaboration (jamo bilan ishlash) qismiga aynan mos tushadi. Istalgan sinfdagi tortinchoq bolaga rol bersangiz, va hattoki sinfdoshlari oldida bitta she'r aytib ber desangiz uni qaltiroq bosadi. Mana shu turdagi o'quvchilar bilan ishlashning eng samarali usuli ularni jamoalarga biriktirish, ko'proq guruhlar bilan ishlashdir. Bola bu jarayonda fikrini erkin bayon etishga harakat qiladi, xuddi guruhdoshlari kabi. Kasbga yo'naltirish jarayonida ham "men kelajakda shu kasb egasi bo'lmoqchiman chunki bu kasbning menga shu Tomoni juda yoqadi" deb bema'lol ayta oladi.

Virtual ekskursiyalar: Texnologiyalar yordamida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish. Ma'lumki, tobora yoshlar ,o'quvchilar ijtimoiy tarmoqlarning faol kuzatuvchisiga aylanib borishmoqda. Shunday vaziyatda ularni to'g'ri yo'lga boshlashda ham nimaga biz ana o'sha zamonaviy texnologiyalardan foydalanmasligimiz kerak. Dars jarayonlarida ijtimoiy tarmoqlardan bolalar uchun mos

darajada bo'lgan fermaga sayohatlarni ,quruvchilarning faoliyatlarini-yu bog'bonning mevalarni yetishtirishdagi kasb sirlarini yoritgan videoroliklar qo'yib berish kerak .Kichik maktab yoshidagi bolajonlar mana shu videolar orqali ham fermerning qora mehnatini-yu bog'bonning tinim bilmay ishlashiga guvoh bo'ladi.

3. Kasbga yo'naltirishning ta'siri.

Boshlang'ich sinfda kasbiy yo'naltirishning muvaffaqiyatli o'tkazilishi, kelajakda mehnat bozoriga moslashishni osonlashtiradi.O'quvchilarning o'zlariga mos kasbni tanlashlariga ijobiy ta'sir qiladi.Sababi u o'rganuvchi ilk maktab yoshidanoq kasblar haqida chuqur bilimlarga ega bo'lgan .U bu kasbni tanlash yoki o'zgartirishligi haqida kamida 5-6 yil o'ylab ko'rgan bo'ladi.Va natijada o'zi uchun qiziqarli va foydali bo'lgan kasbni ikkilanmay mahkam ushlaydi.Bu turdagi yoshlardan faqatgina yuqori natijalar,yutuqlarni kuzatish mumkin.

XULOSA

Boshlang'ich sinfda kasblar bilan tanishtirish ta'lim jarayonining muhim qismi bo'lib, o'quvchilarning qiziqishlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Interfaol usullardan foydalanish orqali bolalarda kasbiy ong va kasb tanlashga bo'lgan ijobiy munosabatni rivojlantirish mumkin. Ushbu maqola kelajak tadqiqotlar uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1.Jumaniyozova M.,Ishmuhammedov R. Ta'limda pedagogic texnologiyalardan foydalanish. – Toshkent:Iste'dod,2012

2.Turg'unov A. Kasb-hunarga yo'naltirish, o'quv qo'llanma. -Toshkent - 2019